


Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Hudovandning Yusufni sharaflashi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

M. Maillot; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

M. Maillot; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

www.M1914.org

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1

Canada

©2013 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.

Lekin u sotilmaydi.



Yusuf aybsiz bo'lsa ham Po'tifar uni zindonda qamatib qo'ydi. Yusuf esa itoatkor edi va hatto qamoqda yahshilik qilishni davom etdi. Zindon boshlig'I qamoqdagi butun mahbuslarni Yusufning qaramog'iga berdi va u yerdagi hamma ishlarni Yusuf idora qilar edi. Hudovand Yusuf bilan bo'lgani uchun, u qilgan hamma ishga omad berar edi.



Bir kuni Misr podshohining
soqiysi va navvoyi zindonga
qamaldilar. Bir kuni Yusuf
ulardan: "Nima uchun bugun

yuzlaringiz
g'amgin"
- deb
so'radi.



Ular esa: "Biz tush ko'rdik, ammo tushni ta'bir qiladigan kishini topolmadik" - dedi. "Tushning tabirlari Hudodan! Ko'rgan tushingizni menga tushuntirib

beringlarchi" - dedi Yusuf ularga.



Yusuf soqiyga: "tushning ta'biri shu, uch novda - uch kun. Uch kundan keyin, Fir'avn sening boshingni yuksaltirib, avvalgi mansabingga qaytaradi. Shunda meni ham eslab turgin" - dedi.


Novvoyga esa:

"uch kundan keyin Fir'avn seni boshingni tanangdan judo qiladi" - dedi.

Ikkala tush ham Yusuf ta'bir qilganidek bo'ldi.



Shundan so'ng soqiy qamoqdan ozod bo'ldi va Yusufni boshqa eslamadi, uni butunlay unutib yubordi. Bir kuni Fir'avn tush ko'rdi,



ammo uning tushini ta'bir qilib beradigan biron kishi topilmadi. Shunda soqiy Yusufni eslab, Fir'avnga Yusuf haqida aytib berdi.



Fir'avn darhol Yusufni olib kelish uchun kishilar yubordi. Yusuf podshoh huzuriga keldi va unga: "Tushlaringning manosi shu. Butun Misr mamlakatida 7 yil farovonlik bo'ladi, keyin 7 yil qahatchilik bo'ladi" - dedi.



“7 farovonlik yilida Misrning
hosilidan yig‘ib g‘amlab qo‘y,
bo‘lmasa mamlakat ochlikdan
qirilib ketadi” -dedi

Yusuf Fir‘avnga.
Shunda podshoh
Fir‘avn Yusufga:
“senda Hudoning
Ruhi bor, men
seni butun
honadonim
ustidan
rais qilib
tayinlayman”
- dedi.



Yetti farovonlik yili keldi. Keyin 7 qahatchilik yili boshlandi. Barcha o'lkalar ocharchilikka yo'liqqan bo'lsa ham Misrning har bir burchagida non serob edi, chunki Yusuf Misrning butub ovqatini yig'ib g'amlab qo'ydi. Ammo Yusufning akalari yashaydigan mamlakatda





qahatchilik
kuchayib ketdi.



Yusufning otasi Yoqub Misrda g'alla borligini
eshitib, o'g'illariga: "Misrga borib g'alla
sotib olib kelinglar, Bo'lmasa
ocharchilikdan
o'lamiz" -
dedi.



Yusufning akalari Misrga g'alla sotib
olgani kelishdi va Yusufga ta'zim qilishdi,
Yusuf esa akalarini ko'rib ularni tanidi
lekin akalari uni tanimadilar. Shunda
Yusuf o'zining ko'rgan tushlarini esladi.



Yusuf ularning qoplarini g'allaga
to'ldirdi ammo akalariga ters gapirib,
agar sizlar josus bo'lmasangiz
ukalaringizni mening oldimga
olib kelinglar shunda
men sizlarga
ishonaman
dedi.



Ular qo'rqib: "Hudo bizlarni ukamiz
Yusuf uchun jazolayotgan bo'lsa
kerak" -deb bir-birlariga
aytishar edilar.



Aka-ukalar otalari Yoqubning oldiga kelib
barcha voqealarni unga aytib berdilar.
Yoqub esa ularga: "mening o'g'lim
Benyamin sizlar bilan
bormaydi" dedi.



Lekin ularning ozuqalari tamom bo'lgandan keyin, aka-ukalar yana Misrga borishdi va bu safar ularning ukasi Benyamin ular bilan birga bordi.



Yusuf o'z ukase Benyaminni ko'rgandan keyin, hizmatkorlariga hayvon so'yib taom tayorlashni buyurdi. U boshqa akalarini ham uyga taklif qilib: "sizning otangiz hali ham tirikmi?" deb ulardan so'radi. Yusuf o'zining butun oilasini Misrga olib kelmoqchi bo'ldi.



Taom tugagandan keyin Yusuf
akalrini o'g'irlikda aybladi va
Benyaminni o'zi bilan olib qoldi.
Shunda Yahudo Yusufga
yaqin kelib dedi:
"Benyaminning o'rniga
men qul bo'lib senga
hizmat qilaman,

faqat uni
otamning
oldiga qaytib
yubor" -dedi.




Shunda Yusuf o'zini boshqa tuta olmay, ovozi boricha yig'ladi va o'z birodarlariga:

"men Yusufman!
Otam hali ham
tirikmi?" -dedi.

Lekin uning
birodarlari
uning

qarshisida
gangib qolib,
nima deyishni
bilmas
edilar.



Yusuf so'zini davom etib: "Hudo
sizlarni ochlikdan

qutqarish
uchun meni bu yerga
yuborib boshliq qilib
tayinladi, otangiz hali
ham tirikmi? Borib uni
olib kelinglar"

-dedi.



Yusuf bilan otasi
Yoqub Misrda yana
uchrashib birlashdilar
va butun oila birgalikda
rohat-farog'atda yashar
edilar.




Hudovandning Yusufni sharaflashi
Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 39-45

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130






Hikoya tugadi



8



60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

